



Movarounnahrda Tasavvuf Ta'limoti Tarixi

История Суфийского Учения В Мавераннахре

The History Of Sufi Teachings In Movarounnahr

Xoshimova Go'zal Fatxullayevna

Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

kafedrasi katta o'qituvchisi.

guzalkhasimova@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Movarounnahr hududida tasavvuf ta'limotining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning tarixiy mohiyati tahlil qilinadi. Xususan, tasavvufning dastlabki ko'rinishlari, uning yirik namoyandalari va tariqatlar faoliyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, tasavvufning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri va uning bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Tasavvuf, Movarounnahr, tariqat, so'fiylik, ma'naviyat, tariqatlar, naqshbandiya, kubroviya, yassaviya.

Аннотация.

В данной статье анализируются этапы формирования и развития суфийского учения в регионе Мавераннахра, а также его историческая сущность. Особое внимание уделяется ранним формам суфизма, деятельности известных суфийских мыслителей и тарикатов. Также рассматривается влияние суфизма на духовную жизнь общества и его актуальность в современности.

Ключевые слова: Суфизм, Мавераннахр, тарикат, духовность, суфийские ордена, накшбандия, кубравия, яссавия.

Abstract.

This article examines the formation and development stages of Sufi teachings in the region of Movarounnahr, as well as its historical essence. Special attention is paid to the early forms of Sufism, prominent Sufi thinkers, and the activities of various tariqas. The study also highlights the impact of Sufism on the spiritual life of society and its relevance in the modern world.

Keywords. Sufism, Movarounnahr, tarikat, spirituality, Sufi orders, Nakshbandiyya, Kubrawiyya, Yasawiyya.

Kirish (Introduction)

Movarounnahr (arab manbalarida “*Mawara' an-nahr*” — Amudaryo ortidagi hudud) qadimdan ilm-fan va ma'naviyat markazlaridan biri sifatida tanilgan bo'lib, ayniqsa VIII–XII asrlarda Markaziy Osiyoning eng yirik ilmiy-madaniy hududlaridan biriga aylangan. Islom dini bu hududga VIII asrda kirib kelib, IX–X asrlarga kelib mustahkam qaror topdi va natijada diniy-falsafiy tafakkur, ayniqsa tasavvuf ta'limoti uchun muhim ijtimoiy-madaniy zamin yaratildi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi markazlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ilmiy va ruhiy hayotning ham markaziga aylandi.

Tasavvuf dastlab VIII–IX asrlarda islom olamining boshqa hududlarida shakllana boshlagan bo'lsa-da, X–XII asrlarga kelib Movarounnahrda o'ziga xos maktab va tariqatlar shakllandi. Bu davrda tasavvuf insonning ichki poklanishi (*tazkiya*), nafsni tarbiya qilish, ruhiy



kamolotga erishish va ilohiy haqiqatni anglash yo'li sifatida falsafiy-diniy tizim darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Somoniylar (IX–X asrlar) va keyinchalik Qoraxoniylar hamda Xorazmshohlar davrida tasavvuf keng ijtimoiy qatlamlar orasida yoyilib, jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylandi.

Movarounnahrda tasavvuf ta'limotining rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, bu jarayon ijtimoiy-siyosiy sharoitlar, madaniy almashinuv va diniy qarashlar evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. XII asrda Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan yassaviya tariqati turkiy xalqlar orasida tasavvufni keng yoyishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, Najmiddin Kubro asos solgan kubroviya tariqati (XII–XIII asrlar) tasavvufning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirdi. XIV asrga kelib esa Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan naqshbandiya tariqati Movarounnahr va butun Markaziy Osiyo hududida keng tarqalib, tasavvufni jamiyat hayoti bilan uyg'unlashtirishda muhim o'rin egalladi.

Shu tariqa, Movarounnahr hududi o'rta asrlar davomida tasavvuf ta'limotining muhim ilmiy va ruhiy markazlaridan biri sifatida shakllandi. Bu hududda shakllangan tasavvufiy an'analar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom olami ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi va bugungi kunda ham o'zining ilmiy-falsafiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi (Literature review)

Tasavvuf ta'limoti tarixi ko'plab sharq va g'arb olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i tasavvufning xalq orasida keng yoyilishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Alisher Navoi asarlarida tasavvufiy g'oyalar chuqur falsafiy talqin etilgan.

G'arb tadqiqotchilaridan Annemarie Schimmel tasavvufni islomning ichki ruhiy yo'nalishi sifatida izohlaydi. Alexander Knish esa tasavvufning tarixiy evolyutsiyasi va ijtimoiy funksiyalarini keng tahlil qiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham uning mohiyatini, xususiyatlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, N.Komilov, E.Karimov va boshqa ko'plab olimlar o'z izlanishlarida tasavvuf tarixini o'rganishgan.

Metodologiya (Methodology)

Mazkur ishda tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asos qilib olindi. Maqola yozish jarayonida quyidagi tarixiy-tahliliy metod (tasavvuf ta'limotining Movarounnahrda shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun), komparativ (taqqoslash) metod (turli tariqatlar: naqshbandiya, kubroviya, yassaviya o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashda), manbashunoslik yondashuvi (tasavvufiy manbalar va tarixiy asarlarni ilmiy tahlil qilishda), sotsio-falsafiy tahlil (tasavvufning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini baholashda)lardan foydalanildi. Ushbu ishda klassik tasavvuf manbalari, tarixiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Asosiy qism.

Movarounnahrda tasavvuf ta'limotining shakllanishi va evolyutsiyasini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon faqat diniy hodisa sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy transformatsiyalar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan ko'p qatlamli fenomen hisoblanadi. VIII–IX asrlarda islom dini Movarounnahr hududida mustahkam qaror topib, diniy tafakkurda yangi bosqichni boshlab berdi. Aynan shu davrda tashqi diniy amaliyotdan ichki ruhiy kamolotga yo'naltirilgan tendensiyalar kuchayib, tasavvuf dastlab zohidlik (asketizm) shaklida namoyon bo'ldi. Keyinchalik esa u murakkab falsafiy-diniy tizim sifatida shakllanib, insonning ruhiy poklanishi, nafsni tiyish va ilohiy haqiqatni anglash yo'lidagi nazariy-amaliy konsepsiyaga aylandi.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlar X–XII asrlarda Movarounnahrning Markaziy Osiyo doirasida tasavvufning yetakchi markazlaridan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Bu davrda



shaharlashuv jarayonining jadallashuvi, Buyuk ipak yo‘li orqali savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, shuningdek, Buxoro va Samarqand kabi ilmiy markazlarning yuksalishi tasavvufning ijtimoiy ildizlarini mustahkamladi. Mazkur jarayonni tahlil qilgan Annemarie Schimmel tasavvufni “islomning ichki, ruhiy o‘lchovi” sifatida ta’riflab, uning inson qalbini poklash va ma’naviy kamolotga erishishdagi o‘rmini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, “tasavvuf — bu faqat diniy amaliyot emas, balki insonning ichki dunyosini tubdan o‘zgartiruvchi ruhiy tajriba tizimidir”, bu esa tasavvufni fenomenologik va antropologik jihatdan ham muhim hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.[1;50.]

Tasavvufning ijtimoiy funksiyalari masalasida Alexander Knysh qarashlari alohida e’tiborga loyiqdir. U tasavvuf tariqatlarini o‘rta asr musulmon jamiyatining muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida baholab, ularning siyosiy hokimiyat va xalq ommasi o‘rtasidagi vositachilik rolini qayd etadi. Uning ta’kidlashicha, “Sufi brotherhoods served as mediators between political authority and the masses, providing moral guidance and social cohesion”. [2;192.] Ushbu yondashuv tasavvufni faqat ruhiy-amaliy yo‘l emas, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida ham ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Movarounnahr mutasavviflarining nazariy va amaliy merosi tasavvuf taraqqiyotining ichki dinamikasini belgilab berdi. Jumladan, Ahmad Yassaviy o‘zining “Hikmatlar” asari orqali tasavvufni xalqchil ruhda talqin etib, uni keng ommaga yaqinlashtirdi. Uning “Haq yo‘lida nafsingni yengmasang, haqiqatga yetolmaysan” degan fikri tasavvufning asosiy epistemologik va axloqiy prinsipini — nafsni poklash orqali haqiqatga erishish g‘oyasini ifodalaydi. Bu esa tasavvufni amaliy-axloqiy maktab sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Najmiddin Kubro esa tasavvufni nazariy jihatdan chuqurlashtirib, inson ruhiy tajribalarini tahlil qilishga e’tibor qaratdi. Uning qalbni “ilohiy nur aks etuvchi oynaga” qiyoslash haqidagi qarashi tasavvufning gnoseologik va psixologik asoslarini ochib beradi. Bu yondashuv orqali inson ruhiyati murakkab bilish ob’ekti sifatida talqin etilib, tasavvufiy tajribaning ilmiy-falsafiy asoslari kengaytirildi.[3;143.]

Olimning 2009-yilda nashr etilgan “Tasavvuf” kitobida esa tasavvuf ta’limotining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning asosiy tariqatlari va ularning g‘oyaviy xususiyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi.[4;140.]

Movarounnahr hududida shakllangan yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlarining o‘ziga xos jihatlari ochib berilib, ularning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni asoslab beriladi. Ayniqsa, naqshbandiya tariqatining “xalvat dar anjuman” va “dil ba yor, dast ba kor” tamoyillari tasavvufning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanganligini ko‘rsatadi.

XIV asrga kelib Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan “dil ba yor, dast ba kor” tamoyili tasavvufning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu prinsip tasavvufni ijtimoiy hayotdan ajratmasdan, aksincha, uni faol mehnat va kundalik hayot bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslab berdi.[5;200.] Bu yondashuv tasavvufni faqat asketik amaliyot sifatida emas, balki jamiyat ichida yashovchi, faol insonning ma’naviy yo‘li sifatida talqin etishga imkon yaratdi.

Munozarali jihatlardan biri shundaki, tasavvufni talqin qilishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar uni tor doirada diniy-mistik fenomen sifatida baholasa, boshqalar uni kengroq — ijtimoiy-falsafiy va madaniy tizim sifatida ko‘radilar. Bu borada Alisher Navoi qarashlari alohida ahamiyatga ega. U tasavvufni inson kamolotining eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilib, uni axloqiy yetuklik, komillik va ma’naviy go‘zallik bilan bog‘laydi. [6;1-150.] Bu esa tasavvufni umuminsoniy qadriyatlar tizimi darajasiga ko‘taradi.

Shunday qilib, Movarounnahrda tasavvuf ta’limotining rivojlanishi ko‘p qirrali va dinamik jarayon bo‘lib, unda diniy, falsafiy, ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Ushbu murakkablik tasavvufni nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi



kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgan chuqur ma'naviy-falsafiy meros sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagilarni aytish mumkin:

Birinchi dan, Movarounnahr hududi IX–XIV asrlar davomida tasavvuf ta'limotining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, bu jarayon islom sivilizatsiyasining umumiy rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Hududdagi siyosiy barqarorlik va ilmiy muhit tasavvuf rivojiga qulay sharoit yaratgan.

Ikkinchi dan, tasavvuf Movarounnahrda dastlab zohidlik shaklida paydo bo'lib, keyinchalik murakkab falsafiy-diniy tizimga aylangan. Bu jarayonda Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahauddin Naqshband kabi mutasavviflarning o'rni beqiyosdir.

Uchinchi dan, tasavvuf tariqatlari nafaqat diniy, balki ijtimoiy institut sifatida ham faoliyat yuritib, jamiyatda axloqiy me'yorlarni shakllantirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va ruhiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

To'rtinchi dan, tasavvuf ta'limoti Movarounnahrda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlab, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning asosiy g'oyalari — insonparvarlik, sabr, halollik va ruhiy poklanish — zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, Movarounnahr tasavvuf ta'limoti nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi ma'naviy hayotimizni boyituvchi muhim falsafiy meros sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Schimmel A. The Mystery of Numbers. New York. Oxford, Oxford University Press, 1993. – 50 p.
2. Кныш А.Д. Ислам в исторической перспективе: начальный этап и основные источники / А.Д. Кныш. – К.: Изд-во Казан. ун-та, 2015. – 192 с.
3. Komilov N. Tasavvuf yoki Komil Inson axloqi. 1-kitob. – Toshkent. – 143 b.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, O'zbekiston, 2009. –140 b.
5. Komilov N. Naqshbandiya. // O'zME, 6. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 294 b.
6. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr. 1-2 b. www.ziyouz.com; Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. – 150 b. www.ziyouz.com
7. Tursunkulova, S. (2025). TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIY POTENSIALI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(8s), 38-43.
8. Tursunkulova, S. T. (2024). TASAVVUF FALSAFASINING KO'PMA'NOLI MOHIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 288-292.